QASHQADARYO VILOYATI
KOSON TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

180800, Qashqadaryo viloyati, Koson tumani Mustaqillik shoh ko‘chasi-104, Telefon 592-16-28, 592-16-16

2021 - yil 14 - oktabr 439-4-60-Q/21 Koson tuman hokimligi

Koson tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan Koson tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Koson tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Koson tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i I.M.Qutlimurotov, tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i L.Musaev va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori A.Saidqulovga tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Koson” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning koson.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Ochilov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **А.Бойкараев**

Косон туман ҳокимининг
2021 йил 14 октябрдаги
439-4-60-Q/21-сон қарорига
1-илова

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	4K-344 ”A380 a/yo`li-Koson t/yo`l bekati” a/yo`lining 5 km PQ-02	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
2.	4K-344 ”A380 a/yo`li-Koson t/yo`l bekati” a/yo`lining 5 km PQ-02	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
3	4K-339 “Koson shahar aylanma yo`li” a/ yo`lining 5 km. oralig`ida	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
4.	4K-339 “Koson shahar aylanma yo`li” a/ yo`lining 0 km. oralig`ida.	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
5.	4H 284 “Koson Obron–Pudina” a/ yo`lining 4km PQ-02	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
6.	4H 284 “Koson Obron–Pudina” a/ yo`lining 4km PQ - 05	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
7.	4H 284 “Qarshi – Beshkent - Kasbi-Koson” a/yo`lining 64km PQ-0	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**